

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at*
Samarkand State Architecture and Construction University

**FORMATION OF THE LANDSCAPE SOLUTION OF THE RAILWAY AREA
AND THE SURROUNDINGS ON THE BASIS OF LOCAL AND FOREIGN
EXPERIENCES**

PhD, Samarkand state university of architectural construction

Elvira Jurayeva

Samarkand state university of architectural construction

Odilova Fayoza

Samarkand state university of architectural construction

Nurmuradova Yulduz

Annotatsiya. Mazkur maqolada temir yo'llar hududi yon atrofini zamonaviy maqsadlarda foydalanish. Temir yo'llarda tirbandlik tufayli yuzaga keladigan noqulayliklarning oldini olinishi. Transport vositalari harakatini engillashtirish, mamlakatimiz aholisi va tashrif buyurgan sayyohlar va mehmonlarni masofasini qisqartirish. Temir yo'l yo'nalishidagi to'xtash punktlarida piyodalar uchun tunnel tipidagi yo'laklar qurilishi, yo'lovchilarga avtobus, taksi, metro kabi boshqa jamoat transportlariga chiqib olishlari uchun imkoniyat yaratish. Atmosferaga chiqayotgan zararli gazlar miqdorini keskin kamaytirish uchun temir yo'l hududi yon atrofida zamonaviy landshaft loyihasini rejalashtirish, shaharsozlik qoida va normalariga asoslanib qulayliklar yaratish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar. Temir yo'l, bekatlar, vokzal, hudud, poezd, xavfli zonalar, ob'ektlar, transport-kommunikatsiya, ekologiya, yo'lovchi, zamonaviy landshaft, loyiha, rejalashtirish, bunyodkorlik, obodlik, zona.

Xalqimizda "Yo'l qadrini yurgan bilar", degan hikmatli naql bor. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoev o'z dasturida odamlarni hayotdan rozi qilish, xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.03.2015 yildagi PQ-2313-sonli "Muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiyalash dasturi to'g'risida"gi Qarorlarida belgilangan sohani rivojlantirish parametrlari asosida amalga oshirilmoqda. Aholining qo'yilgan maqsadiga etish uchun birinchi navbatdagi vazifalar belgilandi: 5-mamlakatning transport yaxlitligi, mustaqilligi, xavfsizligini taminlash, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishini va tashishga bo'lgan ehtiyojlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni taminlash maqsadida infratuzilmaviy baza sifatida ochiq va barqaror transport tizimini shakllantirish; – temir yo'l infratuzilmasini rekonstruksiya qilish, temir yo'li hududi yon atrofini zamonaviy maqsadlarda foydalanish, takomillashtirish va rivojlantirish; -respublika sanoatini harakat tarkibiga bo'lgan ehtiyojini taminlash uchun harakat tarkibini tamirlash va qurish uchun ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish; -temir yo'lining o'tkazuv va tashuv qobiliyatini oshirish bo'yicha choratadbirlarni ishlab chiqish, shuningdek, yo'lovchi temir yo'l transportining harakat tezligi va xizmat ko'rsatish darajasini oshirish; – temir yo'llarda poezdlar harakati xavfsizligini oshirish bo'yicha choratadbirlar dasturini ishlab chiqish; – tashuvni tashkil etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 martdagi 2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirishni ta'minlash, diversifikatsiyalash, modernizatsiya qilish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida PF-4707-sonli Farmoni va 2015-2019 yillar uchun muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va zamonaviylashtirish dasturi to'g'risida belgilab berilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari joriy “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari” yilida yanada keng ko‘lam kasb etmoqda. Mamlakatimizda oxirgi yillarda ulkan qurilish hamda obodonlashtirish yumushlari bajarildiki, bularning barchasi mazkur azim shaharlarimiz ahli va mehmonlariga yanada qulaylik yaratilmoqda.



Mamlakatimizda zamonaviy temir yo‘llar, turarjoylar, yirik sanoat majmualari, namunaviy mahallalar, maishiy xizmat ko‘rsatish ob‘ektlari, ravon yo‘llar, murakkab loyihali ko‘priklar ana shular jumlasidandir.

Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablari asosida mamlakatimiz va xorijiy tajribalarni qo‘llab temir yo‘llar va uning atroflarida landshaft echimini shakllantirish.



Temir yo‘l bekatlari, vokzallar va temir yo‘lning tashish jarayoni bilan bog‘liq boshqa bo‘linmalari hududlari, poezdlar harakati amalga oshiriladigan hamda manyovr va yuk ortish, yuk tushirish ishlari bajariladigan yo‘lovchilar platformalari va temir yo‘l tarmoqlari o‘ta xavfli zonalar hisoblanadi va zarurat bo‘lganda atrofni o‘rab qo‘yilishi, lozim. O‘ta xavfli zonalarda fuqarolarning bo‘lishi va ob‘ektlarning joylashtirilishi, bunday zonlarda ishlar bajarish, temir yo‘llar orqali yurish va ularni kesib o‘tish qoidolari davlat temir yo‘l transportini boshqarish organi tomonidan belgilanadi.

Temir yo‘llarda obodonlashtirish ob‘ektlari -aholi hayoti uchun qulay va madaniy shart-sharoitlarini yaratish maqsadida hududlarni muhandislik jihatidan tayyorlash, yo‘llar qurish, hududlarni tozalash, zaxini qochirish, ko‘kalamzorlashtirish va irrigatsiyalash tadbirlarini amalga oshirish, mikroiklimni yaxshilash, havo havzasi, ochiq suv havzalari va tuproqni ifloslanishdan himoya qilish, u yoki bu hududni qurilish uchun yaroqli holga keltirish va belgilangan maqsadda normal foydalanish, amalga oshiriladigan shovqinlar darajasini kamaytirish ishlarining yig‘indisi;

-ko‘chalar, aylanma ko‘chalar, yo‘llar, markaziy maydonlar, yo‘lkalar, ko‘priklar, tunnellar, yo‘lovchilar o‘tadigan er osti yo‘llari, favvoralar, ariqlar, kanallar, daryolar, ko‘llar va boshqa suv havzalarining qirg‘oqlari, aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini va hordiq chiqarishini qondirish uchun foydalaniladigan ob‘ektlar (madaniyat va istirohat bog‘lari, o‘rmon massivlari, bog‘lar, bulvarlar, xiyobonlar), tashqi yoritish, reklama pannolari, yo‘l ko‘rsatkichlari, portallar, peshlavhalar, drenaj (drenajning vertikal, yopiq va ochiq gorizontal, yopiq kollektori), irrigatsiya novlari tarmoqlari, tashqi yoritish tarmoqlari;

Temir yo‘l yoqasidan umumiy foydalaniladigan erlari: Temir yo‘l yoqasi maydonlari, ko‘chalar, torko‘chalar, yo‘llar, sug‘orish tarmoqlari, ariq bo‘ylari;

- aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini va hordiq chiqarishini qondirish uchun foydalaniladigan erlar (daraxtzorlar, parklar, bulvarlar, xiyobonlar, shuningdekariqtarmoqlarierlari);

Temir yo‘l yoqasining obodonlashtirish, ob‘ektlarini qurish va barpo etishda arxitektura va qurilish. Hududlarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, ko‘chalar bo‘ylab qurilgan binolarni rekonstruksiya qilish, dam olish hududlari va bog‘larini tashkil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan shaharsozlik normalari va qoidalariga rioya etilishini;

- umumiy foydalaniladigan daraxtlar bu parklar, hiyobonlar, stadionlar, ko‘cha va maydonlar, bulvarlar, shahardagi umumiy savdo va ma‘muriy markazlar hamda jamoatchilik binolari yonidagi uchastkalardagi daraxtlardir;
- zamonaviy landshaft echimi asosida temir yo‘l yoqasida kichik me‘moriy shakllar, kichik bog‘lar, favvoralar, gulli o‘simliklar, gulzorlarni (bahor-yozgi va kuz-qishki gulli bezaklarni, gilamsimon gulzorlarni), ushbu ob‘ektdagi gullarda ko‘p yillik turlaridan iborat bo‘lgan gulzorlarni shakllantirish;

Temir yo‘l yoqasi daraxt va butalariga shakl berish, ularni sanitariya maqsadida javob berish;

Tashqi yoritish. Tashqi yoritish tarmoqlari elementlariga temir yo‘l ko‘chalarini yoritish tayanchlari va yoritgichlari va takroriy yoqish punktlari, avtomatika va telemexanika apparatlari. Temir yo‘llarda tashqi yoritish bo‘yicha ishlarni tashkil etish ularni saqlash, mukammal va joriy ta‘mirlash hamda foydalanishga doir boshqa ishlarni nazarda tutish zarur bo‘ladi. Sun‘iy yoritish manbalari yordamida binolar va inshootlar tashqarisida zarur yoritilganlikni va yorug‘likni yaratish.

Temir yo‘l xo‘jaligi. Temir yo‘l xo‘jaligi elementlariga ko‘chalarning yurish qismidagi yo‘l polotnosi, yo‘lkalar, bekat shiypolari, er osti o‘tish yo‘laklari, ko‘priklar va yo‘lo‘tkazgichlar, chetki to‘siqlar, suv ayirish tarmoqlari va boshqa inshootlar kiradi.

Temir yo‘l yoqasida landshaft echimini rejalashtirish va kichik me‘moriy shakllarni loyihalash, suyanchiqlar, to‘siqlar, pavilonlar, bekat maydonchalari, tonnellar, ko‘priklar va yo‘l belgilarini zamonaviy shakllarga aylantirish.

Sanitariya jihatidan tozalash. Temir yo‘l yoqasi obodonlashtirish ob‘ektlarini sanitariya jihatidan tozalash tizimiga tashqarini tozalash-hovli hududlarini, ko‘chalarni va umumiy foydalaniladigan joylarni changlarni yo‘qotish va qishki tozalashga qorni, muzlagan joylarni yo‘qotish.

Temir yo‘l atrofidagi binolar va inshootlarga tutashgan (ajratilgan) er uchastkalarida kichik me‘moriy shakllarni loyihalash, obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish hududlarida daraxtlar va gullar o‘tqazishni ta‘minlash zarur. Aholi punktlarining umumiy foydalaniladigan erlarida imoratlar va inshootlar barpo etishga faqat erlardan foydalanishning belgilangan maqsadlariga muvofiq ruxsat etiladi.

Temir yo‘l yoqasida zarur darajada bo‘lmagan va belgilangan standartlarga javob bermaydigan reklama vositalarini o‘rnatish, shu jumladan e‘lonlar va afishalarni ushbu maqsadlar uchun ruxsat etilmagan va mo‘ljallanmagan joylarda osib qo‘yish taqiqlanadi.

Mazkur temir yo‘l shahar transport-kommunikatsiyasini takomillashtirish, ekologiya, musaffoligini ta‘minlash, aholiga qo‘shimcha qulaylik yaratishi bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

Poytaxtimizda qurilgan elektrlashtirilgan yangi temir yo‘lda 26 ta to‘xtash punkti bunyod etilib, u Bo‘zsuv, Salar kanallari ustidan o‘tishi sababli 70 ta ikki tomonlama ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlarni o‘z ichiga qamrab oladi hamda ular poezdlarning xavfsiz harakatlanishiga moslashtiriladi. SHuningdek, loyiha doirasida bir nechta elektr uzatish stansiyalari, Yashnobod tumanida esa elektropoezd yo‘lovchilariga xizmat ko‘rsatuvchi bino va inshootlar qurildi.

Har bir to‘xtash punkti transport infratuzilmasiga mos ravishda qad rostlagan. Ya‘ni ular qad rostlash hududi, maxsus avtobus bekatlarini barpo etilishi barobarida, boshqa zarur xizmatlar ham tashkil qilinadi. To‘xtash punktlari tomonlari 5 ta vagonga mo‘ljallangan 120 metr uzunlikdagi platforma bilantaminlanadi.

Loyiha amaliyotga kiritilgach, tirbandlik tufayli yuzaga keladigan ko‘plab noqulayliklarning oldi olinadi. Ya‘ni u nafaqat shahar ichidagi transport vositalari harakatini engillashtiradi, balki poytaxt aholisi va mehmonlari masofasini ham qisqartiradi.



Aytish o‘rinliki, ushbu yo‘nalishdagi temir yo‘l yo‘nalishidagi to‘xtash punktlarida piyodalar uchun tunnel tipidagi yo‘laklar qurilishi yo‘lovchilarga avtobus, taksi, metro kabi boshqa jamoat transportlariga chiqib olishlari uchun imkoniyatni yuzaga keltiradi. Binobarin, loyihadan ko‘zlangan maqsad ham avtomobil yo‘llaridagi tirbandliklarning oldini olish, atmosferaga chiqayotgan zararli gazlar miqdorini keskin kamaytirish uchun temir yo‘l hududi yon atrofida zamonaviy landshaft loyihasini rejalashtirish, yo‘lovchilarga zamonaviy xizmatlar taqdim etish uchun qulayliklar yaratishdir.

Hududida xavfli yuklarni ishlab chiqarish, saqlash, ortish, tashish va tushirish ishlari amalga oshiriladigan ob'ektlar umumiy foydalanishdagi temir yo'llardan va inshootlardan ularning xavfsiz ishlashini ta'minlaydigan masofada uzoqlashtirilgan bo'lishi kerak. Umumiy foydalanishdagi yo'llarning quvurlar, aloqa, elektr uzatish tarmoqlari va boshqa inshootlar bilan kesishgan joylarida mazkur ob'ektlardan umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va inshootlarga bo'lgan eng kam masofa, shuningdek temir yo'llar bilan kesishish va yaqinlashish joylarida bunday ob'ektlarni qurish va saqlash normalari tegishli davlat boshqaruv organlarining davlat temir yo'l transportini boshqarish organi bilan kelishilgan holda qabul qilinadigan normativ hujjatlarida belgilanadi.

Xorijiy mamlakatlarda temir yo'llarni mahalliy sharoitiga asosanib turli loyihalarda qurilgan.



Kuranda, Avstraliya. Ushbu yo'lning qurilishi 1891 yilda yakuniga etkazilgan. Temir yo'l Kernsdan boshlanib Kuranda shahrigacha boradi. Poezd 1 soatu 45 daqiqa harakatlanadi va unda ketayotgan odam Berronsharsharasi, Korall dengizi va boshqa tabiat mo'jizalarini tomosha qiladi. Yo'l «Barron-Gorj» milliy bog'i hududidan o'tadi, sharsharalar atrofi tropik o'rmonlar bilan qoplangan, yo'l dagi tunnellar soni 15 tani tashkil qiladi.

Hindiston tog'laridagi temir yo'llar. Darjiling-Himolay temir yo'li, Kalka-Shimla va Nilgiri yo'llari Hindiston Britaniya koloniyasi bo'lgan davrda qurilgan va muhandislikning san'at darajasidagi namunalari hisoblanadi. Har bir yo'nalishda relslar tog' yonbag'irlariga yotqizilgan, baland tog'lar manzarasi esa kishiga zavq bag'ishlaydi. Ushbu yo'llardan qatnaydigan poezdlarda

atrofning betakrorligini tomosha qilishga muyassar bo'ladilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hayot davom etar ekan, bunyodkorlik, obodlik va farovonlik ishlari ham to'xtab qolmaydi. Mamlakatimizda zamonaviy temir yo'llar va ulkan loyihalar asosida hududi yon atrofini zamonaviy maqsadlarda foydalanish asosida uning amalga oshirilishi rejalashtirilmogda. "O'zbekistonda temir yo'llarini loyihalash, shahar atrofini to'liq qamrab oluvchi temir yo'l liniyasi qurish hamda yo'lovchi poezdlar qatnovini yo'lga qo'yish loyihasi ishlab chiqilmogda. Turli yo'nalishdagi temir yo'l to'xtash punktlarida piyodalar uchun tunnel tipidagi yo'laklar qurilishi yo'lovchilarga avtobus, taksi, metro kabi boshqa jamoat



transportlariga chiqib olishlari uchun imkoniyatni yuzaga keltirish. Loyihadan ko'zlangan maqsad ham avtomobil yo'llaridagi tirbandliklarning oldini olish, atmosferaga chiqayotgan zararli gazlar miqdorini keskin kamaytirish uchun temir yo'l hududi yon atrofida zamonaviy landshaft loyihasini rejalashtirish, yo'lovchilarga zamonaviy xizmatlar taqdim etish orqali qulayliklar yaratishdir. Mamlakatimizda tashrif buyurayotgan sayyohlar va yo'lovchilar uchun O'zbekistonning bugungi taraqqiyoti va rivojlanishini o'z ko'zi bilan tomosha qilishdir.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
2. Isamuxamdova D.U., Mirzaev M.K. «Zamonaviy shaharsozlik nazariyasi». O'quv qo'llanma, Toshkent, 2015 y.
3. (21-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 6 apreldagi O'RQ-31-sonli Qonuni tahririda — O'RQHT, 2006 y., 14-son, 113-modda).
4. Jurayeva, E., Fayoz, O., & Baljan, X. (2024). ARCHITECTURAL FORMATION PROCESSES OF KARSHI FORTRESS AREAS. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(3), 789-797.
5. Fayoz, O., & Baljan, X. (2024). ANALYSIS OF SCIENTIFIC AND PRACTICAL WORKS ON HISTORICAL MONUMENTS IN UZBEKISTAN. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(17), 403-406.
6. Odilova, F., Mamatkulov, U. B., & Muxtorov, Z. K. (2023). BASIC CONCEPTS OF TRAINING EXPERT-RESTORATOR FOR RECONSTRUCTION AND RESTORATION OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 291-299.
7. Odilova, F. O., Musurmonov, Q. T., & MA, J. (2024). BASIC CONCEPTS OF PROTECTING ARCHITECTURAL MONUMENTS. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(3), 798-806.
8. Nurmuradova, Y., Jurayeva, E., & Odilova, F. (2024). ORGANIZATION OF PROTECTION GODS IN HISTORICAL CITIES. *Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827)*, 2(4), 69-76.
9. Odilova, F. O., & Maxmatqulov, I. T. (2022). Scientific analysis of the Erkurgan historical and archeological complex in Karshi district of Kashkadarya region. *Journal of Architectural Design*, 3, 7-11.
10. Jurayeva, E., & Nurmuradova, Y. (2023). O 'ZBEKISTON TARIXIY OBIDALARIDAGI BEZAKLAR TAHLILI. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(10), 1-4.

11. Jurayeva, E., & Nurmuradova, Y. (2023). Architecture of Historical Monuments of Shahrisabz. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 4(10), 6-10.
12. Elmuradovna, J. E. (2023). TARIXIY SHAHARLARDAGI CHETEL MAYDONLARINING ARXITEKTURASINI TAHLIL QILISH. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(1), 20-26.
13. Koziyevich, E. I., & Elmuradovna, J. E. (2023). SCIENTIFIC ANALYSIS OF THE ARCHITECTURE OF ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS OF THE ANCIENT KARSHI CITY. JOURNAL OF ARCHITECTURE, ENGINEERING AND MODERN TECHNOLOGIES, 2(2), 58-61.
14. Koziyevich, E. I., & Elmuradovna, J. E. (2023). THE SCHEME OF TERRITORIAL PLACEMENT OF AGGLOMERATION COMMERCIAL AND HOUSEHOLD COMPLEXES IN UZBEKISTAN. JOURNAL OF ARCHITECTURE, ENGINEERING AND MODERN TECHNOLOGIES, 2(2), 62-67.
15. Doniyorbek, N. (2023). CREATION OF A COMPLEX OF MODERN WATER TREATMENTS FOR CHILDREN. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 523-527.